NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## *2021- YIL YANVAR-MAY*

Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: 79-223-33-29

# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-may)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 28 807,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,4 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 60,5 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 14,4 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 7,4 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning- 1,6 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 224,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,** *% da*




## Ishlab chiqaradigan sanoat

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*




2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24 027,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-may oylarida - 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 7,3 % (5,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 85,8 % (87,1 %) va quyi texnologiyalisi - 6,7 % (7,0 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**

**Ulushi *% da***

| | |
|---|---|
| 0,3 | 2020- y. |
| 0,2 | 2021- y. |

**O‘rta-yuqori texnologiyali**

**Ulushi *% da***

| | |
|---|---|
| 5,6 | 2020- y. |
| 7,3 | 2021- y. |

**O‘rta-quyi texnologiyali**

**Ulushi *% da***

| | |
|---|---|
| 87,1 | 2020- |
| 85,8 | 2021- |

**quyi texnologiyali**

**Ulushi *% da***

| | |
|---|---|
| 7,0 | 2020- y. |
| 6,7 | 2021- y. |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,0 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,6 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 128,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 % (2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 141,5 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,9 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 69,3 % ga o‘sgan), 38,5 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) 162,9 % ga, 243,0 ming tonna suvsiz ammiak (148,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**




**Sement**




**Azot**




**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | 2020- yil yanvar-may oyiga nisbatan o'sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 1 417,0 | 1 547,4 | 109,2 |
| **Azot,** ming m³ | 3,5 | 5,9 | 169,3 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni**, tonna | 29 757 | 26 721 | 89,8 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna | 23,6 | 38,5 | 162,9 |
| **Kislorod**, ming m³. | 58,3 | 57,9 | 99,3 |
| **Suvsiz ammiak, ming tonna** | 163,7 | 243,0 | 148,4 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 195,9 | 189,8 | 96,9 |
| **Tvorog va tvorogdan mahsulotlar,** tonna | 37,6 | 40,0 | 106,4 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan azot 169,3 % ga hamda kaustik soda mahsulotining 162,9 % ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, yumshoq bug'doy va spelta uni (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan - 89,8 %) pasayishi kuzatildi.

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-may)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 6,7 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,6 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 4,5 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 18 408,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,3 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 961,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 702,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may)*




2020- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 % ni, fizik hajm indeksi 155,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 476,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

<u>**Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash**</u>

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 516,3 mlrd. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,3 % ni) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,4 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*







<u>**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**</u>

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 5 053,5 | 4 493,0 | -560,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1 596,1 | 2 101,5 | 505,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 5 782,9 | 21 177,4 | 15 394,5 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 9,3 | 79,3 | 70,0 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** *tonna* | 9 314,1 | 15 256,0 | 5 941,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 3,3 bar ga va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar - 8,5 bar ga hamda

boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar - 63,8 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 542,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2020- yil yanvar-may oylarida 0,03 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 30,1 % ni, Karmana tumani 19,3 % ni, Qiziltepa tumani 12,5 % ni, Xatirchi tumani 11,9 % ni hamda Navbahor tumani 7,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (104,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (128,4 %) hamda Karmana tumanida (110,0 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 1 542,2 | 100,0 | 104,4 |
| Navoiy sh. | 464,1 | 30,1 | 99,0 |
| Navbahor t. | 111,0 | 7,2 | 103,6 |
| Zarafshon sh. | 112,0 | 7,3 | 128,4 |
| Nurota t. | 96,8 | 6,3 | 104,0 |
| Karmana t. | 297,1 | 19,3 | 110,0 |
| Tomdi t. | 13,6 | 0,9 | 100,0 |
| Konimex t. | 34,6 | 2,2 | 90,0 |
| Uchquduq t. | 36,2 | 2,3 | 100,6 |
| Qiziltepa t. | 192,8 | 12,5 | 107,3 |
| Xatirchi t. | 184,0 | 11,9 | 100,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 37,6 % ni, Karmana tumani 22,6 % ni, Xatirchi tumani 8,3 % ni, Nurota tumani 8,2 % ni, Qiziltepa tumani 7,4 % ni hamda Navbahor tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (101,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (129,5 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 881,3 | 100,0 | 101,5 |

**Navoiy viloyati.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 331,8 | 37,6 | 99,0 |

**Navoiy sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 56,7 | 6,4 | 105,5 |

**Navbahor t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 48,4 | 5,5 | 129,5 |

**Zarafshon sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 72,3 | 8,2 | 104,8 |

**Nurota t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 199,5 | 22,6 | 101,5 |

**Karmana t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 6,1 | 0,7 | 100,1 |

**Tomdi t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 16,2 | 1,9 | 79,7 |

**Konimex t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 12,0 | 1,4 | 100,9 |

**Uchquduq t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 65,0 | 7,4 | 99,9 |

**Qiziltepa t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 73,3 | 8,3 | 100,3 |

**Xatirchi t.**

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to‘g‘ri kelib Navoiy shahriga 20,0 % ni, Qiziltepa tumani 19,3 % ni, Xatirchi tumani 16,8 % ni, Karmana tumani 14,8 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Karmana tumanida (132,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 660,9 | 100,0 | 108,4 |
| Navoiy sh. | 132,3 | 20,0 | 98,9 |
| Navbahor t. | 54,3 | 8,2 | 101,6 |
| Zarafshon sh. | 63,6 | 9,6 | 127,6 |
| Nurota t. | 24,5 | 3,7 | 101,5 |
| Karmana t. | 97,6 | 14,8 | 132,6 |
| Tomdi t. | 7,5 | 1,1 | 100,0 |
| Konimex t. | 18,4 | 2,8 | 101,6 |
| Uchquduq t. | 24,2 | 3,7 | 100,5 |
| Qiziltepa t. | 127,8 | 19,3 | 111,5 |
| Xatirchi t. | 110,7 | 16,8 | 100,0 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 618,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

# Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*(2021- yilning yanvar-may oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 28 807,0 | 100,0 | 107,8 |
| Navoiy sh. | 24 601,5 | 85,4 | 108,5 |
| Navbahor t. | 257,9 | 0,9 | 116,0 |
| Zarafshon sh. | 137,8 | 0,5 | 110,7 |
| Nurota t. | 113,8 | 0,4 | 106,4 |
| Karmana t. | 2 850,4 | 9,9 | 106,0 |
| Tomdi t. | 14,7 | 0,05 | 104,5 |
| Konimex t. | 38,5 | 0,1 | 98,7 |
| Uchquduq t. | 64,8 | 0,2 | 113,5 |
| Qiziltepa t. | 245,0 | 0,8 | 107,8 |
| Xatirchi t. | 482,6 | 1,7 | 110,5 |

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, *% da*

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko‘rsatkichidan yuqori, Navbahor tumaniga (2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 116,0 %) hamda Uchquduq tumaniga (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 113,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida ( 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 128,4 %), Karmana tumanida (110,0 %), Qiziltepa tumanida ( 107,3 %) hamda Navbahor tumanida (103,6 %) sezilarli darajada oshdi.

**Navoiy viloyati jami sanoat**
**mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,4 %) hamda Karmana (9,9 %), Xatirchi (1,7 %), Navbahor ( 0,9 %), Qiziltepa ( 0,8 %), tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi ( 0,05 %), Konimex (0,1 %), Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %), tumanlari hamda Zarafshon ( 0,5 %) shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.






**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*(2021- yilning yanvar-may oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 683,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Konimex (100,0 %), Nurota (97,1 %), Qiziltepa (78,2 %) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (99,1 %) ni tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,6 %), Karmana (15,0 %), Xatirchi (38,8 %), Navbahor (44,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda**

*(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 322 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 728 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,9 %) Navoiy shahriga, 573 tasi (17,2 %) Karmana tumaniga, 415 tasi (12,5 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**

*(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra)*




2021- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 437 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 64 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 14,6 %) Xatirchi tumanida, 63 tasi (14,4 %) Navoiy shahrida, 63 tasi (14,4 %) Karmana tumanida, 52 tasi (11,9 %) Nurota tumanida, 48 tasi (11,0 %) Uchquduq tumanida, 46 tasi (10,5 %) Zarafshon shahrida, 41 tasi (9,4 %) Qiziltepa tumanida, 30 tasi (6,9 %) Navbahor tumanida hamda 16 tasi (3,7 %) Tomdi tumanida tashkil etildi.